

# **MILLIY QADRIYATLARNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI**

## **AHAMİYATI**

D.B.Qarshiboyeva-Jizzax davlat pedagogika universiteti umumiyl psixologiya  
kafedrasini o'qituvchisi

Po'latov Ja'farbek Xasanboy o'g'li- Fizika va astronomiya fakulteti, Texnologik  
ta'limg yo'naliishi 1-bosqich 410-22-guruh talabasi

**Annotasiya:** Maqolada milliy qadriyatlarning ta'limg-tarbiya jarayonidagi o'rniga bag'ishlangan ilmiy nazariy adabiyotlar va amaliy empirik yondashuv asosidagi materiallar tahlil qilingan. Ta'limg-tarbiya jarayoniga milliy qadriyatlarning ba'zi jihatlarini joriy etish orqali tarbiya ishlarida amalga oshirish zarurati atroflicha o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy qadriyat, diniy qadriyat, pedagogik jihat, pedagogik sharoit, o'zlikni anglash, ma'naviy rivojlanish.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni xalqimizning an'analarini, madaniyati va ilm-fan bobidagi ko'p asrlik tajribalarini o'rgatish ijobjiy pedagogik samaralarni beradi. Shuning bilan birga jamiyatimizda yashovchi har bir onglikishi, mustaqil va erkin fikrga ega bo'lgan shaxs va fuqarolik jamiyatini ma'naviyatini shakllantirish va shu asosda rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Shu sababli ham o'qituvchining serqirrali va murakkab kasbiy faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish yordamida ilmiy dunyoqarashini kengaytirish kabi muhim vazifalar yotadi.

Natijada ta'limg va tarbiya dasturlariga milliy qadriyatlarni kiritish ishlari bosqichma bosqich va sharoitga mos holda puxta amalga oshirildi. Endilikdai esa, milliy qadriyatlarning zamonaviy ta'limg mazmuniga singdirilishi va integrasjion jarayonning natijalarini ilmiy o'r ganish ilmiy doiralarning asosiy mavzularidan biriga aylanmoqda. Mavzuga oid adabyotlar tahlili. Milliy

qadriyatlarning tarixiy-pedagogik jihatlari va uning turli qirralarini o‘rganish ko‘p tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot va ilmiy nashrlari doirasida amalga oshirilgan. Bu borada, ayniqsa, rus olimlari – A.A.Koychuev, YE.A.Rezvan; o‘zbek olimlaridan – A.A. Bolibekov, D.M.Kenjayevelar tomonidan olib borilgan, milliy qadriyatlarning pedagogik jihatlari bilan diniy axloqiy qadriyatlarning mushtarakligi masalasiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarini qayd etish lozim. Ilmiy qadriyatlarning ideallar shaklida ifodalanishi orzu-umidlar ro‘yobga chiqishi bilan bog‘liq bo‘lib, u kishilar va jamiyat intiluvchi oliy maqsaddan iborat bo‘ladi.

Demak, donishmandlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan intellektual meros ko‘proq ilmiy qadriyatlarga tegishli bo‘ladi. Ilmiy qadriyatlar insonlar va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan intellektual mulkdan iborat bo‘ladi.

Kishilik tarixda o‘z istiqboli kelajagiga mos yutuqlarni orzu qilib, bu orzu-istaklarni nodir qo‘lyozmalarda (muqaddas kitoblar, ertaklar, dostonlar) ifodalaganlar. Jumladan, ertaklardagi «Oynai jahon» orqali televide niye, «uchar gilam» orqali samolyotlar, «Avesto» orqali bunyodkorlik g‘oyalari, yozma manbalar orqali ozodchilik qahramonlari To‘maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najmuddin Kubro, Mahmud Turobiy, Madali Eshon, Shirin, Layli, Majnun kabi obrazlarda ifodalangan. Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asari orqali komil inson ta’limoti, Alisher Navoiy asarlari orqali adolatli jamiyat haqidagi ta’limoti, to‘lqinlar tarqalishi qonuniyatlarini orqali radiodan hayotda foydalanish, odamlar qadimdan ot qo‘shmasdan o‘zi yuradigan arava yasashni orzu qilib, avtomobilni yasash, nutq va boshqa tovushlarni istalgan masofaga uzatishni orzu qilib, telefonni yasashni, tez hisoblashlarni orzu qilib, elektron hisoblash mashinalarlarni yaratishni, ma’lumotlarni saqlash vositalarini izlashda qog‘ozni hosil qilish va shular asosida yozuv va kitoblarni yaratishni, vaqtini hisob-kitob qilish maqsadida soatning yaratilishi va shu kabilarning hamma-hammasi insoniyat aqliyati mahsulidir.

Bu manbalarda milliy qadriyatlarning ta’lim jarayonida tutgan o‘rnini haqida ko‘plab xotiralar mavjud. Shuningdek, o‘rganilayotgan masalaning tahlili uchun

N.A.Boborovnikov, A.Borns, E.A.Vulfson, I.Gaspirinskiy, A.Donish, V.P.Nalivkin, N.P.Ostromov, P.I.Pashino, N.Xanikov tomonidan qoldirilgan asarlar ham ahamiyatlidir. Ularning fundamental asarlari milliy ta’limning turli jahbalariga oydinlik kiritgan tadqiqotlarning bir qismi sanaladi. Jumladan, S.Ayniy, V.Bartold kabi olimlarning asarlari tadqiqot natijalarining yaxlit manzarasni yaratishga yordam berdi. Tadqiqot usullari nazariy, qiyosiy, tarixiy tahlil, manbalarni o’rganish usullari, tanqidiy yondashuv, adabiy manbalarni umumlashtirish, tarixiy dalillarni tizimlashtirishga asoslandi. Chunki ilmiy adabiyotlar, darsliklar, shuningdek, turli mamlakatlar tadqiqotchilarining fikrlari, jumladan, tarixiy manbalar o’zbek, tojik, rus, va ingliz tillaridagi ilmiy izlanishlar, diniy adabiyotlar, mumtoz adiblar asarlar o’rganildi. Pedagogik g’oyalarning paydo bo’lishi va shakllanishi tarixda uzoq davom etgan va xalqlar sivilizasiyasida hayotiy ahamiyatga ega bo’lgan omil sifatida o’rin egallagan. Masalan, zardushtiylar eng yaxshi ta’lim, bu bolalarni o’rab turgan tabiiy vositalar va insoniy omillar yordamida ta’lim berishdir, deb hisoblaganlar. Zardusht bolalarni poklik, notiqlik, mehnatsevarlik, halollik, yomon odamlardan qochish, yomon xulqatvorlardan saqlanish va yaxshi odamlarga tayanish ruhida tarbiyalagan [1].

Bu borada O’rta Osiyo xalqlarining ta’lim muammolari, qadim zamonlardan buyon umumxalq e’tirof etilgan milliy an’analar, ma’naviy asoslar va xulq-atvor me’yorlari bilan bog’liq bo’lgan. Ta’lim va tarbiyaning ilk tashkiliy shakllari qadimgi maktab prototiplari ko‘rinishida, qabila jamoalarining hayotida, ya’ni paleolit davrida, kommunal tushunchasi bilan bir paytda paydo bo’lgan[2]. Demak, o’sha davrdayoq ajdodlar hayotidagi ta’lim jarayonida xalqning ma’naviy, axloqiy va diniy asoslarida ifodalangan milliy qadriyatlar muhim rol o’ynagan. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogika fani milliy qadriyatlar va an’analarning ma’naviy-axloqiy omillarini ta’limda joriy etish holatini o’rganishga ko‘proq e’tibor berishi taqozo etiladi. Ayniqsa, ularning bizgacha yetib kelgan yozma manbalardagi ma’lumotlari ilmiy-amaliy ehtiyoj sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim-tarbiya masalalaridagi milliy qadriyatlarning o’rnini yoritib beradigan va

kitoblar to‘plami ko‘rinishida, O‘rta Osiyo xalqlari uchun, birinchi to‘liq manba —Avestodir. Ushbu kitob, ahamiyat va o‘quvchilarga ta’sir kuchi nuqtai nazaridan diqqat markazida turadi. Adabiyotlarda nomus va poklik, inson vaadolat, muruvvatliylik va haqgo‘ylik kabi ijobjiy fazilatlarga zulm va qabihlik, tovlamachilik va poraxo‘rlik, muttahamlik va riyokorlik kabi salbiy bid’atlar qarama-qarshi qilib qo‘yiladi. —Avestoda pedagogik yondashuvlar, har bir xayrli ishning samarali hayotiy kuchga erishishi uchun pedagogik omillarning sharhlari berilgan. O‘rta Osiyo xalqari hayotida bolalarni tarbiyalash azaldan muhim vazifa ekanligini aynan —Avesto kitobida o‘qish mumkin. Unda ta’kidlanishicha, agar bola asosan yetti yoshigacha onasi yonida bo‘lsa, uni 7 yoshidan mакtabga yuborish kerak. —Agar kichkina bolangiz bo‘lsa, uni maktabga yuboring, chunki bilim - ko‘zning nuri [3]. Ushbu manbada, ba’zi pedagogik qoidalar singari bolalar va yoshlarning tarbiyasi va ta’limini yaxshilashga yordam beradigan g‘oyalar mujassamlashgan hamda ta’lim-tarbiya orqali insonparvarlik,adolat va mehribonlik kabi insoniy fazilatlarning kamol topishiga ishonch tuyg‘usi bilan qaralgan. Keyingi asrlar tarixida ham milliy qadriyatlarning ta’lim-tarbiya jarayoniga ijobjiy ta’sirini ko‘rish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, milliy qadriyatlar asoslariiga tayangan holda yo‘lga quyilgan ham ta’lim va ham tarbiya ko‘p jihatdan ijtimoiy va ma’naviy barqarorlikka zamin yaratadi va birlin-ketin xalq ma’naviy merosini saqlash maqsadida ta’lim va tarbiya maskanlari ko‘payib boraveradi. Umuminsoniy qadriyatlar: «Odамzodning yashashi, umrguzaronligi, farzandlari hayotining ijtimoiy, iqtsodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy va axloqiy sohalariga taalluqli bo‘lgan umumjamiyat miqyosidagi qadriyatlar butn insoniyat va jamiyatga tegishli bo‘lganidan, umuminsoniy qadriyatlar, deb ataladi» [4].

Umuminsoniy qadriyatlar o‘zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilinishi, dunyodagi ko‘plib xalqlar (elatlar, millatlar)ning o‘tmishdagi, hozirdagi va istiqboldagi (kecha → bugun → ertaga tizimi bo‘yicha) taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o‘zida jahon sivilizatsiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalaganligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlarning va millatlarnigina emas, balki bashariyat (insoniyat)ning mulkidir.

Markaziy Osiyi shaharlarida madrasalar bilan birga, katta va kichik maktablar tashkil etilib, ular xalqning ilm-fan va ta’limini rivojlantirishga xizmat qildi. Masalan, tadqiqotchi L.Asrorova Buxoroning ko‘plab madrasalari bilan mashhurligini ham qayd etadi. Buxoro turli shahar va mamlakatlardan kelgan talabalar uchun ilmiy ta’lim shahri bo‘ldi. Milliy qadriyatlar saqlanishi va rivojlanishi zaruratini anglagan O‘rta Osiyo xalqlari farzandlari, qaysi ko‘rinishda bo‘lishidan qat’i nazar, ta’lim va tarbiya dargohlarini ochish va ko‘paytirishga intilganlar. Ma’naviy ehtiyoj sifatida, ta’lim masalasi milliy qadriyatlarga shu qadar mustahkam o‘rnashganki, zinhor xalq e’tiboridan chetda qolmagan. ta’lim jarayonida va tarbiya bosqichlarida ular bashariyat tamaddunining oltin xazinasidan o‘rin olgan, buyuk mutafakkirlarning asarlaridan, jumladan, Jaloliddin Rumiyning —Masnaviyi ma’naviy, Shayx Sa’diyning —Bo’ston, —Guliston, Abdurahmon Jomiyning —Bahoriston®, Alisher Navoiyning —Xamsa, —Mahbub ul-qulub, —Lison ut-tayr, Mavlono Voiz Koshifiyning —Anvori Suhayliy, Faxriddin Ali Safiyning —Latoyif uttavoyif, Zayniddin Muhammad Vosifiyning —Badoye’ ul-vaqoyi’idan muhim didaktik material sifatida foydalanishgan. Milliy qadriyatlarning pedagogik jihatlarini bugungi ta’lim tizimi bilan transformasiyasi masalalarini o‘rganish uchun, ya’ni ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni amaldagi holatini o‘rganish maqsadida bir qator darsliklar ham o‘rganildi. Aytish lozimki, ushbu darsliklarning har biri hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, milliy qadriyatlar jihatlarini ham qamrab olishga harakat qilingan. Jumladan, O‘zbekistonda o‘qitiladigan —Odobnama, —Vatan tuyg‘usi, —Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari®, —Ma’naviyat asoslari, (ushbu darsliklar 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab umumiy —Tarbiya nomi bilan birlashtirildi) —kabi darsliklar ko‘p savollarga oydinlik kiritishga yordam berdi. Alovida ta’kidlash lozimki, yuqorida ko‘rsatilgan darsliklarda ham O‘rta Osiyo xalqlarining buyuk mutafakkir ajdodlari sanalmish Rudakiy, Firdavsiy, Ibn Sino, Nizomiy,

Jaloliddin Rumiy, Fariduddin Attor, Nasriddin Tusiy, Sa'diy, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, Jomiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Mashrab, Huvaydo va boshqa mashhur shoir va olimlarning asarlariga murojaat etilib, ularning pandu nasihat, ta'lim-tarbiya va axloq-odob mavzusida aytgan qimmatli fikrlari milliy qadriyatlar mazmunidan kelib chiqqanini ta'kidlab, ular orqali yosh avlodni ma'naviy va ruhiy go'zallikka undovchi hayot tajribalari zaminida bunyod bo'ladigan hikmat maktabi bilan tanishtirishga bo'lgan say-harakatlar kuzga tashlandi. Ushbu darsliklarda har bir xalq va millatning milliy qadriyatlari o'ziga xos jihatlari bilan tarannum etilgan bo'lib, umumbashariy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog'liq ekanliklari qayd etilgan.

Xulosa o'rnida aytish joizki, O'rta Osiyoda hamisha milliy qadriyatlarning pedagogik jihatlari ham ularning tarixiy jihatlari kabi, avloddan avlodga meros qoldirilishi natijasida, zamon bilan hamnafas takomillashtirilgan va rivojlantirilgan. Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy jihatlari va ularning mazmunida do'stlik, birodarlik, mardlik, vatanga va xalqqa bo'lgan samimiyy sadoqat motivlari ulug'lanadi, ota-onasi bilan farzandning o'zaro mehr-muhabbati, qadrqimmati, insonning eng yaxshi oljanob fazilatlari tarannum qilinadi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Abubakr Muhammad binni Ja'far Narshaxiy. Ta'rixi Buxoro. – Dushanbe: «Donish», 1979. – 120 b.
2. Asrorova L. Abu Hafs Kabir Buxoriy va hanafiy fiqhi. – Toshkent: Islom universiteti, – 2014. – 216 b.
3. Borns A. Puteshestviye v Buxaru, – M.1848.
4. Falsafa: qomusiy lug'at. – Toshkent: Sharq, 2004. – 476 b.
5. Shirin Kamolova, [САМОВОСПИТАНИЕ – ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ГАРМОНИЧНО – РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ](#), [Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 \(2020\): Journal of Pedagogy and psychology in modern education](#)

6. Shirin Kamolova, ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ СЕЙНОСТЕЙ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
7. Shirin Kamolova, THE ROLE OF UNIVERSAL AND SCIENTIFIC VALUES IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогики и психологии в современном образовании
8. Shirin Kamolova, ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБРАЗОВАНИИ ЯВЛЯЕТСЯ ТРЕБОВАНИЕМ СЕГОДНЯШНЕГО ДНЯ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогики и психологии в современном образовании
9. Shirin Kamolova, IMPLEMENTATION OF PEDAGOGICAL ETHICS IN FUTURE TEACHERS, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari
10. Kamolova, S. U., Shakarbaeva, S. A., Yuldashev, S. A., & Ochilov, C. Q. (2020). The Essence Of The Content Of Enriching The Scientific Outlook Of Future Teachers. Essence, 29(8), 3593-3598.
11. Kamolova, Shirin Usarovna, & O'Skanov, Mirsaid (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 676-681.
12. Kamolova, Shirin Usarovna, & Axmedova, Fotima Xurramovna (2022). SOG'LOM SHAXS HAYOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 630-636.
13. Nuriddinovna, K. S., & Meliyevna, P. N. (2022). Characteristics of Environmental Education Issues in Avesto. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(2), 69–72. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/ijdias/article/view/1053>

14. Shirin Kamolova, [РАСШИРЕНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ СТУДЕНТОВ](#), Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education
15. Axmedova Nasiba Achilovna 2022. ZO'RAVONLIK TURLARI VA UNING OILA MUHITIGA TA'SIRI. 117-119 betlar
16. Ахмедова Насиба Ачиловна, СОҒЛОМ МУҲИТ –СОҒЛОМ ОИЛА ТАЯНЧИ.<https://history.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2966/1982>
17. Karshibaeva Dilfuza Burlievna (2020). CRITICAL THINKING IN ADOLESCENTS. Евразийский Союз Ученых, (12-1 (81)), 4-5.
18. Karshibaeva, D., & Sattarova, F. (2020). CRITICAL THINKING IN ADOLESCENTS. EurasianUnionScientists, 1(12 (81)), 4-5.
19. D.Qarshiboyeva.Improving Family Literacy Relationship depending on psychological education at school and family environment.  
<https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/ISSUE-3>